Mutafakkir shoir, yetuk muarrix, zabardast mutarjim sifatida XIX asr o'zbek adabiyoti tarixida katta o'rin tutgan Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy 1809-yili Xiva xonligida miroblik vazifasida ishlab kelganlar. Amakisi - mashhur shoir va muarrix Shermuhammad Munis ham mirob edi. Uch yoshida otasidan erta yetim qolgan Muhammad Rizo uning qo'lida tarbiyalanadi.¹ Ogahiyning kichik she'riy janrlar: ruboiy, tuyuq, fard, kabi shakllarda ham benazir ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ogahiy salafllari Lutfiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy hamda Munis kabi mumtoz adabiyotimiz yorqin siymolari an'analarini davom ettirdi, rivojlantirdi, yangi badiiy kashfiyotlar bilan boyitdi. Uning ijodi shoirlarimizning bir necha avlodi uchun mahorat maktabi bo'lib xizmat qiladi

Kishikim toleyi farxundavu baxti humoyundur

Na ishkim qilsa maqbul-u na so'z kim desa mavzundur.

Musallamdur anga zuhd-u fano-u faqr atvori-

Ki, oldig'a na kelsa rozi-yu masrur-u mamnundur.

Haqiqatda gado andoq muazzaz podshohdurkim,

Muqassir farshi yer sathi, muhaqaar qasri gardundur.

Hazar qil, ey g'aniy, bo'lma haris amvol jam'ig'a-

¹ Jamoling jilvasi Toshkent Ozbekiston 2016

Ki, bo'lg'ay zillati Qorung'a bois hirs Qorundur.
Takabbur bodasin ichmakdin e'roz aylakim, shayton
Bu may kayfiyatidin to abad mardud mal'undur.
Chu gardun ofarinish ichra izhor etti sarkashlik,
Bu fe'lidin tun-u kun zor-u sargardon-u vojundur.
Bu gulshan sayrin etsang, bosma gustoxona tufroqni-
Ki har gom ostida bir paykari ozoda madfundur.
Necha dono esang ham urma g'ayb asroridin damkim,
Oning fikrida ojiz yuz Arastu ming Falotundur.
Agar muhtoj esang, hojatravolig' ista ul shahdin-
Ki, shahlar ollida oning gadoyi zor-u mahzundur.
Tong ermas, bo'lmasam bir lahza hosid makridin emin-
Ki, shaytondin adovat toabad odamg'a maqrundur.
Bori xalq o'lsa dushman Ogahiyg'a zarracha g'am yo'q-
Ki oning homi-yu g'amxorasi Xalloqi bechundur.

Ushbu g'azalda Ogahiy butunicha pand-nasihati ruhida yozgan bo'lib har bir bayti da'vatdek yangraydi. " So'z ", " ganj ", " ehtiyoj", " arzimas" radifli, " Kishikim, tole'yi farxundav-u baxti humoyundur", " Xarob o'lsun, ilohi gumbazi davvori charxi dun" misralari bilan boshlanadigan g'azallari bus-butunicha pand- nasihat ruhida yozilgan. ²

Jamiyatda, hayotda sevgiga munosabat dastlab Ogahiy lirikasining umumiy ruhida hazinlik, nadomat motivini ustun qiladi. Oshiqlar ko'pincha yoriga yetolmaslik xususida chuqur hayajon, nadomat bilan hasrat qiladi. Ogahiy lirikasi umumiy ruhidagi bu hazinlik xursandchilikdan ko'proq hasrat motivlarini ustunligi shoirning shaxsiy tuyg'usi yoki qobiliyatidagi biron nuqson natijasi sifatida yuzaga kelgan emas: aksincha, bu Ogahiy ulug' insonparvar o'z ijodida bevosita hayotdan oziqlangan, sevgi masalasida ham davrining asosiy xususiyatlarini ko'ra bilgan realist sifatida gavdalaniriladi³

.Xulosa qilish joizki, Ogahiy dunyoga , insonga tunganmas muhabbat, hayotga cheksiz mehr bilan qaraydi, ijtimoiy jarayonlarga qattiq qiziqadi.Shoir insonni hayot gozalliklarini, muhabbat shavq- zavqini tolib toshib tarannum etadi. Shuning uchun bolsa kerakki, uning gazallarida ozgacha dard, ozgacha ruh mavjud. Ishqiy gazallarida koproq yorga murojaat, uning vasliga yetmoqlik uchun oshufta konglini qurbon qilishi bayon etilgan.

² Jamoling jilvasi Toshkent Ozbekiston 2016

³ Z. Qosimova Mumtoz adabiyot vakili Ogahiy ijodida ishq mavzusi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Jamoling jilvasi Toshkent Ozbekiston 2016
2. Jamoling jilvasi Toshkent Ozbekiston 2016 65- 66 betlar
3. Z.Qosimova Mumtoz adabiyot vakili Ogahiy ijodida ishq mavzusi

OGAHIY ZULLISONAYN SHOIR SIFATIDA

Ilmiy rahbar: f.f.n. PhD M.Ortiqova

Toshkent davlat sharqshunoslik univristeti talabasi

Shukurova Ruxsora Abdulhofiz qizi

e-mail: shukuruovaruxsora5956@.com

Annotasiya: XIX asrda faoliyat yuritgan ko‘plab shoirlarning ikki yoki undan ortiq tillarda ijod qilgani barchamizga ma’lum. Ushbu maqolada Ogahiyning zullisonayn shoir sifatida, xususan fors tilidagi ijod namunlari va ularning mazmuni haqida.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, zullisonayn shoir sifatida, fors-tojik, Amiriy, Qo‘qon xonligi.

Ogahiyning forsiy she’riyatini ko‘zdan kechirar ekanmiz, shoir fors tilida ijod qilish fors-tojik adabiyotining zabardast vakillari ijodidan ta’sirlangan holda ushbu ta’sir ostida qolib ketish emasligini yaxshi anglaganini mushohada qilamiz. Umuman, Ogahiyning forsiy lirikasi an’anaviylik va novatorlik chegarasida turish bilan karakterlanadi. Bundan tashqari Ogahiy forsiy she’riyatida ham nazmbozlik, xususan, she’riyat uchun ayb sanaluvchi masx kabi nuqsonlardan holi she’rlar yaratishga intilgan. Ogahiy bu adabiyotning mashhur vakillari ijodidan qanchalik ta’sirlanmasin, mazkur tilda yaratgan har bir satrida o‘z daxosiga munosib ravishda muhim ijtimoiy fikrlarni bayon qilishga harakat qiladi. Masalan “Shabnamro” radifli g‘azalida

Maxo‘r hargiz fireb az fursati hastai dar in gulshan

Ki, umri nimro‘zi saxt noyob ast shabnamro

Ya’ni “bu gulshanda borlik fursatidan aldanib qolma, chunki shabnamga yarim kunlik umri ham juda qadrlidir (notobdir)”¹. Ushbu misralar zamirida kata falsafiy mushohada yashiringan bo‘lib, inson umri nihoyatda omonatligi, shunday ekan, undan faqat ezgulikkina meros qolishi mumkinligi ta’kidlaydi shoir. Mazur g‘azal shoir

¹ Ta’viz –ul oshiqin. –B. 486,

tomonidan umrining so‘ngi yillarida, kata adabiy va hayotiy tajriba hosil qilgan davrda yaratilganligi “ Bu mo‘yi piri ashkam, Ogahiy, dar bahr agar g‘alatl”, ya’ni “ qariganda oppoq soqolim bilan, Ogahiy, ko‘z yoshim agar dengiga tushsa...” misrasidan ham bilib olamiz.

Shoir nazdida shabnam oqil inson uchun kata bir ibrat. Shuning uchun uning har bir jihatini shoir o‘zining hayotiy mushohadalari bayoni uchun badiiy ahamiyatga aylantiradi:

Sarash bar sachda boshad, z-in chixat dar hoki in buston

Ki, naqshi poyi on gulchehra mexrob ast shabnamro

Ya’ni shabnamga bu bo‘ston tuprog‘ida ul gulchehraning oyoq izi mexrob bo‘lgani kabi hamisha boshing sajdada bo‘lsin! Shu o‘rinda shoirning orginal tashbihi har jigar tob ast shabnamro, Ki sar to poy a‘zo az gudoz ob ast shabnamro” (Bilmadim nega shabnam buncha bezovta, mana shu hasratdan jismi boshdan oyoq suv bo‘lib ketibdi) degan savollarga javob berishga harakat qiladi. Umrning g‘animatligini Ogahiy “Subh” she’rida ham badiiy timsollar orqali ifodalaydi:

Shud az umri bebaqoi xudmagar ogoh subh,

Meravad az xeshtan har dam kashida oh subh.

Tarjimasi: O‘zini o‘tkinchi umridan bo‘ldimi yo ogoh tong,

O‘zidan ketar har dam chekibon oh tong².

Shoirning falsafiy mushohadasiga ko‘ra, umrning g‘animatligini anglash uchun inson qalbida tong kabi musaffolik bo‘lmog‘i kerak, degan g‘oya mana shu badiiy timsollar ostida yashiringan. Ogahiy ijodining ham markaziy mavzusi - inson. Shuning uchun, eng avvalo insonlar bir-birlarini qadrlamoqliklari kerak.

Keyingi misralarda shoir sulukning eng asosiy shartlaridan birini badiiy obrazlar orqali quyidagicha bayon qiladi:

Chilvai yorat, agar xohy zi haty dur shav,

² A.Axmedov tarjimasi. Merosga mexr. —Toshkent TDPU, 2003 —B. 88.

Mekushoyad baxri mehri mehr az raftani xud roh subx.

Tarjimasi: Agar yoring jilvasi(vasli)ni istasang,o'ingdan kech, xuddi o'zidan kechish bilan quyoshga yo'l ochgani kabi.

Quyidagi g'azal esa majoziy ishqning go'zal tarannumi bo'lib Ogahiyning o'zbekcha she'riyatidagi

Yuzing ochkim, Quyosh sadqang bo'lib boshingdin aylansun,

Yangi oy yuz tavoze' ko'rguzub qoshingdin aylansun³

Matla'li g'azali ruhida yozilgan:

Shabe tanxo biyo, chun mohi tobon, az asrat gardam,

Ruxatro kun maro sham'i shabiston, az sarat gardam —

Sadqang bo'lay, bir kecha to'lin oyday bo'lib tanxo kel, yuzingni men uchun tunimni yorituvchi sham qil.

Baytda soqilikning ko'ngilga o'zidan boshqa daxl qila olmaydigan fayz yetishi, tariqat maqomlarini bosqichma-bosqich o'tash asnosida yuz beradigan inkishof mazmuni an'anaviy tarzda tavsiflangan.

Ogahiyning forsiy g'azaliyotida Amiriy g'azaliga ikkita tatabbu' va uning ikkita g'azaliga muxammas uchraydi. Bu birinchidan, Amiriyning badiiy mahoratiga tahsin bo'lsa, ikkinchidan Qo'qon xonligi bilan diplomatik aloqalarga ham ijobiy ta'sir o'tkazish maqsadida bo'lsa ajab emas. Uchinchidan, Ogahiy Buxoro amiri amir Nasurulloning 1842-yilda Qo'qon xonligiga qilgan birodarkushlik urushiga o'zining salbiy munosabatini bildirgan. Ushbu adabiy hayrixohlik zamirida siyosiy yakdillikni qo'llash ham bo'lishi ehtimoldan holi emas. Zero "Agar jami' o'lsa uchqun bir makonga, Bo'lur, albatta, otashgoh paydo" degan birdamlikni misralarida keltirgan.

³ Ogahiy. Asarlar. Ikkinchi jild. — Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashryoti, 1972. B.15

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? Toshkent, Sharq nashriyoti. 1999. 94
2. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O'qituvchi nashriyoti, 1964. B-347- 376
3. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. Fan nashriyoti. 2009. B-221-232
4. Navoiy asarlar lug'ati. Alisher Navoiy asarlarining o'n besh tomiligiga ilova. Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. 782
5. Ogahiy she'riyatidan. Toshkent. 1983. 120 b.
6. Majidiy R. Ogahiy lirikasi. Toshkent. O'zbekiston FA nashriyoti. 1953. 238
7. Munirov Q. Ogahiy. Toshkent, O'zbekiston FA nashriyoti. 1969. 54b
8. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. Fan nashriyoti. 2009. 22b
9. Mallayev M., Karimov K., Ismatov I. O'zbek adabiyoti tarixi. O'qituvchi. 1982

QORAMOLLARDA UCHRAYDIGAN TASHQI KASALLIKLAR VA ULARNING TURLARI

Kitaybekov Sultanbek Kadirbaevich Samarqand davlat veterinariya medicinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali Veterinariya va Zootijeneriya fakulteti Veterinariya medicinasi yo'nalishi talabasi

Email: *sultanbekkitaybekov79@gmail.com* **tel:** 998995831399

Annotatsiya: Veterinariya, chorvachilik, ekstensiv, intensiv, genetik potensial, maksimal, yuqumli kasallik, profilaktik vositalar, veterinariya laboratoriyalari, brusellyoz, tuberkulyoz, klinik diagnostika, propedevtika, fermer xo'jaliklari, kasallik belgilari.

Kalit so'zlar: Ushbu maqolada qoramollarda va hayvonlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar tarixi, ularning turlari haqida va qonunchilikdagi qoidalari ma'lumotlari keltirilgan.

Yuqumli kasalliklar tabobatning dolzarb muammolaridan biridir. Yer yuzida hozirgi vaqtda milliardlab odamlar u yoki bu yuqumli kasallikni boshidan kechiradi. Tibbiyot xodimlarining sayi harakatlari natijasida ba'zi kasalliklar (poliomelit) butunlay bartaraf qilingan bo'lsada, ba'zi kasalliklar bilan kasallanish darajasi yuqoriligicha qolmoqda. Bilamizki hayvonlarni tekshirish va kasalliklarni davolash insonlar hayvonlarni qo'lga o'rgatib, ulardan foydalana boshlagan davrdan boshlangan va bu insonning aql idroki, tushunchasi va fanning rivojlanishiga bog'liq bo'lgan. Ko'p asrlar davomida hayvonlarni tekshirish va davolash ishlari bilan ayrim odamlar shug'ullanib kelgan. Bunda ko'rish, paypaslash, kuzatish usullaridan foydalanganlar, kasallik belgisiga qarab (yo'tal, ich ketish, terlash va hokazolar) diagnoz qo'yganlar va davolaganlar. Hayvonlarni davolash to'g'risidagi eng qadimgi qo'lyozma - bu Misrdagi Kaxun veterinar qo'lyozmasidir. Hozirgi davrda olimlarimiz tomonidan zamonaviy, yangi tekshirish usullari ishlab chiqilmoqda, eski tekshirish usullari takomillashtirilmoqda, elektron asbob va uskunalar yaratilmoqda. Bu hayvonlar kasalliklarini aniqlash, davolash va oldini olishda juda katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, xo'jaliklardagi chorva mollari xususiy tadbirkorlar qo'lga o'tdi, chorvachilik bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaliklari tuzildi. Chorvachilik hayvonlarining ko'pchiligi xususiy xo'jaliklar qo'lga o'tdi. Chorvachilikning shaxsiy xo'jaliklarda va mayda fermer xo'jaliklarida rivojlanishi veterinariya xizmatlarining o'z vaqtida sifatli o'tkazilishini qiyinlashtiradi. Bunday holda veterinariya xodimlaridan yanada ma'suliyatli, e'tiborli va kasbga mehr - muhabbat bilan faoliyat yuritishni talab qiladi.

Barchamizga mu'lumki O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 5-son, 223-modda) muvofiq yuqumli kasallikka chalingan hayvonlarga xizmat ko'rsatishda mehnatni muhofaza qilish tartiblari belgilangan.

Mazkur qoidalar mulkchilik shaklidan qat'i nazar, yuqumli kasallikka chalingan hayvonlarga xizmat ko'rsatuvchi barcha turdagi korxonalar uchun taalluqlidir. Mazkur Qoidalarga rioya etilishi ustidan nazorat maxsus vakolatli davlat idoralari, korxonaning rahbari va mehnatni muhofaza qilishga mas'ul xodimlar zimmasiga yuklatiladi. Odam va hayvonlar uchun xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklarga quyidagilar kiradi:

brutsellyoz — brutsella mikrobi qo'zg'atadigan infeksiyon kasallik hisoblanib, sigir, qo'y, cho'chqa uchun xarakterli bo'ladi.

Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi korxonalarda brutsellyoz kasalligining oldini olish maqsadida maxsus dastur asosida emlash, davriy tibbiy ko'rik, dispanserizatsiya va boshqa tadbirlar o'tkaziladi. Kasal hayvon organizmidan brutsellalar tashqi muhitga sut, siydik, jinsiy a'zolaridan keladigan suyuqliklar orqali yaylov, suv ichish manbalari, hovli, ferma, og'ilxonadagi to'shaklarga va kasal hayvonning terisi hamda junlariga tushadi;

kuydirgi — o'ta og'ir o'tuvchi infeksiyon kasallik bo'lib, qoramol, qo'y, bug'u, tuya, ot, cho'chqa va boshqa hayvonlarda uchraydi. Bu kasallik kuydirgi tayoqchalari tomonidan chaqiriladi. Kasallikning oldini olishda odam va hayvonlarni vaqtida emlash asosiy usul hisoblanadi. Kasal hayvonlar izolatsiya qilinadi. O'lgan hayvonlar jasadi kuydiriladi;

leptospiroz — leptospira mikrobi qo'zg'atadigan infeksiyon kasallik bo'lib, odam va hayvonlarda uchraydi. Leptospiroz bilan yirik va mayda shoxli mollar, cho'chqa, ot va boshqa hayvonlar kasallanadi. Meditsina va veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya qilish, emlash va kemiruvchilarni o'z vaqtida yo'qotish tadbirlari kasallikning oldini olishda asosiy tadbirlar hisoblanadi;

oqsil (ovsil) — virusli kasallik bo'lib, odamlarga, qoramol, tuya, ot, bug'u, echki, qo'y, cho'chqa va itlardan o'tadi.

Kasallikning oldini olish uchun avvalo veterinariya-sanitariya tadbirlari o'tkaziladi. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi korxonalarda kasal hayvon aniqlansa, karantin e'lon qilinadi;

salmonellyoz — salmonella virusi qo'zg'atadigan yuqumli kasallik bo'lib, go'sht mahsulotlarini iste'mol qilgandan so'ng oshqozon ichak faoliyatining buzilishi bilan xarakterlanadi.

Kasallikning oldini olish uchun shaxsiy gigiyenaga, tozalikka rioya qilish va oshxona anjomlari (go'sht chopish taxtasi, pichoq, bolta va boshqalar)ni toza saqlash lozim. So'yilgan hayvon yoki parranda go'shtini veterinariya vrachi ruxsatisiz iste'mol qilish tavsiya etilmaydi;

tuberkullyoz — uzoq vaqt davom etadigan infeksiyon kasallik hisoblanadi. Tuberkullyoz bilan yirik shoxli va, mayda shoxli hayvonlar parrandalar va cho'chqalar kasallanadi.

Barcha ishchi xodimlar reja asosida tekshiruvlardan o'tadi va shu bilan birga rengenoflyurografiya va immunobiologik reaksiyaga tekshirilib turishlari shart;

tulyaremiya — kemiruvchilar kasalligi bo'lib, kalamush, andatra, quyon, sug'ur va uy sichqonlarida uchraydi. Kasallik mikrobi kasal hayvonning siydigi va axlati orqali suvni, tuproqni, o'tni va donlarni zaharlaydi. Agar tulyaremiya bilan kasallangan kemiruvchi aniqlansa, o'sha tumanda joylashgan barcha fuqarolar emlanadi;

tenioz — invazion kasallik hisoblanadi. Odamning ingichka ichagida cho'chqa solityorining mavjud bo'lishi natijasida kelib chiqadigan kasallik;

teniarinxoz — nvasion kasalligi. Odam ingichka ichagida ko'p yillar davomida yashaydi. U tashqi muhitga odam organizmidan urug'larga to'lib keyin fekalii bilan birgalikda chiqadi;

exinokokkoz va alveokokkoz — kasallikni odamlarda parazitlar gelmintlar qo'zg'aydi. Exinokokkoz paraziti mayda sharsimon bo'lib, it, bo'ri, tulki, shimol tulkisi va boshqa hayvonlarning ichagida yashaydi;

qutirish — o'tkir yuqumli virusli kasallik bo'lib, bo'ri, tulki, daydi itlar va pashshalar kasallik manbai hisoblanadi. Bu kasallikka yirik va mayda shoxli hayvonlar, ot, tuya, cho'chqa, mushuk va odamlar ta'sirchan hisoblanadi. Viruslar kasal hayvon so'lagida joylashgan bo'lib, u tishlagan vaqtida boshqa organizmga yuqadi.

Qoninchilikka muvofiq: Chorvachilik fermalari va komplekslarida insonlar va hayvonlar chalinadigan kasalliklar bilan kasallangan shaxslarning ishlashlari taqiqlanadi. Hayvonlarga xizmat ko'rsatishda teri kasalliklari bilan kasallangan, shilingan va mayda yaralari bor xodimlar faqat shifokor ruxsati bilan ishlashga ruxsat etiladi. Agressiv hayvonlar saqlanadigan og'ilxona yoki bokslar tepasiga ogohlantiruvchi belgi qo'yilishi shart. Bu belgi sariq rangli yozuv bilan yozilishi lozim. Bog'lanmay saqlanadigan hayvonlarga xizmat ko'rsatish jarayonida ularning harakatini cheklab qo'yadigan asbob va uskunalardan foydalanish kerak. Hayvondan odamga antropozoonos kasalliklarining yuqish usullari turli xil bo'ladi. Ayrim kasalliklar hayvonlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarida yuqishi mumkin. Boshqa holatlarda esa, hayvondan olinadigan mahsulotlar, sut, sut mahsulotlari, jun, go'sht, teri orqali va

parrandalar hamda odam va hayvonga hujum qiladigan qon so'ruvchi hasharotlar tomonidan ham bu kasalliklar yuqtirilishi mumkin

Veterinariya xodimlarining asosiy vazifasi - chorvachilikni rivojlantirib, aholini chorva mahsulotlari bilan va sanoatni xom - ashyo bilan ta'minlashdan iborat. Insoniyat hayotida chorva mahsulotlari asosiy o'rinni egallaydi. Lekin O'zbekistonda hozirgacha odamlarni talab darajasidagi chorva mahsulotlari bilan ta'minlash amalga oshirilgan emas. Shuning uchun veterinariya xodimlari o'z bilim va tajribalarini ishga solib, chorvachilikni yuqori darajada rivojlantirishlari kerak.

Veterinariya mutaxassislari doimo toza, ozoda, maxsus xalat va qalpoqchada yurishlari kerak. Xalat va qalpoqcha toza yuvilgan va dazmollangan bo'lishi kerak. Veterinariya xodimlari o'tiradigan xona, hayvonlarni qabul qiladigan joylar tozalangan bo'lishi, asbob - uskunalar yuvilgan, quritilgan holda alohida joylarda, shkaflarda, usti toza material bilan yopilgan holda saqlanishi kerak. Hayvonni tekshirish uchun kerakli asbob - uskunalar yuvilgan, tozalangan va sterilizasiya qilingan bo'lishi, hayvonni tekshirib bo'lgandan keyin, veterinariya xodimlari asboblarni va qo'lini yaxshilab yuvishi kerak. Dori - darmonlar guruhlar bo'yicha alohida - alohida saqlanishi kerak. Veterinariya xodimlari kasal hayvonlarni qabul qilganda, kasal hayvon va uning egasiga qo'pollik qilmasdan, xushmuomalada bo'lishlari kerak. Agarda yuqumli kasalliklarga gumonsiralsa, qo'l va asboblarda dezinfeksion eritmalar bilan yuviladi, hayvonlarning tezagi, siydigi tozalanib, maxsus chuqurga tashlanadi, hayvon turgan joy dezinfeksiya qilinadi. Kasalliklarning kelib chiqishini oldini olish, kasal hayvonlarni davolash, insonlarni kasalliklardan, tabiatni iflosliklardan saqlash, davlatimizga chetdan yuqumli kasalliklarni kelishini oldini olish veterinariya mutaxassislarining vrachlik burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 12-son, 136-modda; 2010-y., 40-41-son, 349-modda; *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son

2. I.A.Karimov. «Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti-to'kin hayot manbai». T.O'zbekiston, 1998 y

3. 8.Safarov M.B. «Kirish, umumiy tekshirish usullari, hayvonlar bilan dastlabki tanishish, hayvonlarni umumiy tekshirish». Klinik diagnostika fanidan o'quv qo'llanma, Samarqand, 1992 i.

4. Safarov M.B., Nafas olish va yurak – kon tomir sistemalarini tekshirish. Samarqand, 1993 y.

5. Safarov M.B., Raxmonov A.O. Umumiy diagnostika klinik diagnostika fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv qo'llanma. Samarqand, 2002 y.

6. "Hayvonlar yuqumsiz kasalliklari, akusherlik va ginekologiya" kafedrasida klinik diagnostika fanidan ma'ruzalar matni

Boshlang'ich sinf darslarini rivojlantiruvchi ta'lim asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari

Bobomurodov Xusniddin Mengziyoyevich
Termiz davlat pedagogika institutining 2-bosqich magstranti
O'zbekiston Respublikasi
Surxondaryo viloyati Termiz shahri.

Annotatsiya: Dars oldindan o'ylangan va uning rejasi tuzilgan bo'lsa, tabiatshunoslik darsiga bo'lgan ta'riflashgan talablarni amalga oshirish oson bo'ladi. O'qituvchi reja tuza turib, birinchidan, darsning asosiy maqsadini, uning tuzilishini, mazmunini ikkinchidan, tashkil qilinishi shakllarini belgilaydi.

Kalit so'z: pedagogik, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, boshlang'ich sinflar, Tabiatshunoslik darslari, dars tuzilishi.

Аннотация: Если урок продуман и спланирован заранее, реализовать описанные требования к уроку естествознания будет легче. При составлении плана учитель, во-первых, определяет основную цель урока, его структуру и содержание, во-вторых, формы его организации.

Ключевые слова: педагогика, поддержка и развитие, начальные классы, уроки естествознания, структура урока.

Abstract: If the lesson is thought out and planned in advance, it will be easier to implement the defined requirements for the science lesson. While making a plan, the teacher, firstly, determines the main purpose of the lesson, its structure and content, and secondly, the forms of its organization.

Keyword: pedagogy, support and development, primary classes, science lessons, lesson structure.

Rejalashtirishning maqsadga muvofiqligi darsni qismlarga to'g'ri ajratish bilan ta'minlanadi. Boshlang'ich sinf darslarini rivojlantiruvchi ta'lim asosida o'qitishni Nizom talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy va innovatsion pedagogik uslublarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy yetish orqali ta'lim sifatini oshirishda o'quvchilarning individual ijobiy xususiyatlarini aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning yuksak darajada ta'lim-tarbiya olishlari, ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratib berish shakllantirish vazifasi fanning asosiy maqsadi bo'lib, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tarbiyalovchi ta'lim sistemasini tushunib

olish, tabiiy fanlarni o'qitish asoslarini, uning uchun xos bo'lgan shakl, metod va uslublarini, o'quvchilarning bilish faoliyatlariga rahbarlik qilishni o'rganib olishlariga yordam qilish kabi amaliy masalalarini o'z ichiga oladi [2].

Boshlang'ich sinf darslarini rivojlantiruvchi ta'lim asosida o'qitishning vazifalari qatoriga: o'quv fani sifatida tabiiy fanlar mazmunini aniqlash; o'qitishning metod va uslublarini tadqiq qilish (zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalariga alohida ye'tibor bergan holda); zarur o'quv jihozlari ishlab chiqish kiradi.

Binobarin, boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy shakli-darslariga qo'shimcha holda maktab amaliyotida o'qituvchining o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv ishlarining boshqa shakllari tarixan vujudga kelgan. Metodik jihatdan to'g'ri tashkil yetilgan o'qitish jarayonida shu o'qitishning barcha shakllari asosiy shakl-dars bilan o'zaro bog'liqdir. Ular tabiat haqidagi tushunchalarni, dunyoqarashni tafakkurni, amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi.[5]

Darsda har xil metodlarning qo'llanilishi yangi mavzuni to'liq va ravshan yoritishga imkon beradi, o'quvchilarni kamroq charchatadi, faolligini oshiradi. Tabiatshunoslik darslarida o'qituvchi barcha o'qitish metodlarini og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarni qo'llaydi. U o'simlik va hayvonlarni namoyish yetadi. Amaliy ishlarni bajarish yo'li bilan o'quvchilarni ayrim organizmlarning tashqi va ichki tuzilishi bilan tanishtiradi. Zamonaviy tabiiy fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllarini anglab tanlanganligi, ya'ni umumsinf, guruh va individual mashg'ulotlarning oqilona uyg'unlashtirilganligi bilan xarakterlanadi.[8]

Agar dars oldindan o'ylangan va uning rejasi tuzilgan bo'lsa, tabiatshunoslik darsiga bo'lgan ta'riflashgan talablarni amalga oshirish oson bo'ladi. O'qituvchi reja tuza turib, birinchidan, darsning asosiy maqsadini, uning tuzilishini, mazmunini (o'quv materialini, metod va uslublarini, darsning har bir qismi uchun jihozlarni), ikkinchidan, tashkil qilinishi shakllarini (sinf bilan umumiy ish, o'quvchilarning guruhlarga bo'linib ishlashlari, har bir o'quvchining yakka ishlashini) belgilaydi. Rejalashtirishning maqsadga muvofiqligi darsni qismlarga to'g'ri ajratish bilan ta'minlanadi. Rejalashtirish dars tipini belgilovchi va didaktik maqsad bilan taqozo qilinadigan tuzilishga bog'liqdir. Tabiatshunoslik darslarining tiplari. Darsni quyidagi tuzilish qismlariga ajratish mumkin:

1. Tashkiliy qism.
2. Uy vazifasini tekshirish.
3. Yangi materialni bayon qilish.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlashlari, yangi bilimlarini mustahkamlash, ularning o'zlashtirilishini tekshirish.

5. Dars materialini umumlashtirish.
6. Uyga vazifa berish.
7. Baholami sharhlash.

Dars tuzilishi dars mavzusi bo'yicha darslarning umumiy tizimida uning qanday o'rin yegallaganligiga bog'liq, ammo qanaqa bo'lishidan qat'i nazar har bir dars tashkiliy, mantiqiy, psixologi jihatdan yaxlit bo'lishi kerak. Metodik jihatdan to'g'ri tuzilgani darsda barcha tomonlar o'zaro bog'liqdir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1 O'zbekiston milliy ensiklopediya 8 T.: 2000. 801 b.
- 2 V. L. Popov. Invariant // Matematik ensiklopediya. - M.: Sovet ensiklopediyasi, 1979. - T. 2. - S. 526.
3. Berulava M.N. Integratsiya sodiraniya obrazovaniya/ M.N.Berulava. -M.: Pedagogika, Biysk: Nauch. -izd. sentr BiGPI, 1993. -113-115 s.
4. Berulava M.N. Teoreticheskie osnovy integratsii obrazovaniya/ M.N.Berulava. - M.: Sovershenstvo, 1998. -192 s.
5. Isaqulova N.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. - Ped. fan. nom. dis. avtoreferati. - T.: 2006. - 20 B.
6. A Rahmatullayev, D Yoqubova, O Ergasheva "Boshlang'ich ta'lim tizimida integratsiyalashgan texnologiya" Termiz "Surxon-nashr" 2017 19-22b
7. Bezrukova V.S. Pedagogicheskaya integratsiya: suщnost, sostav, mexanizmy realizatsii V.S.Bezrukova Integratsionnye protsessy v pedagogicheskoy teorii i praktike: Sb.nauch.trudov. avtoref. Diss. kand. ped. nauk. Sverdlovsk: SGIPI, 1999. - 25 s.
8. Zaxlebniy A.N.Shkola i problema oхраны prirody. M.: Pedagogika, 1981. - 184 s.
9. Norbutayev Kh.B. The formation of ecological thought of pupils in teaching of biology in connection with natural sciences in the process of the lesson. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (3) Part II, 2020.-P. 134-138.

“MAQSUD SHAYXZODANING TARIXIY MAVZULARDA IZLANISHLARI”

Saparov Jaloliddin Xolbobo o‘g‘li.

Toshkent Davlat Transport Universiteti Yurisprudensiya (Xalqaro transport huquqi) yonalishi 2- bosqich talabasi

Jaloliddinsaparov98@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada buyuk o‘zbek yozuvchisi Maqsud Shayxzoda ijodi xususan yozuvchining tarixiy mavzularda yozilgan asarlari haqida ma'lumotlar berilgan . Maqsud Shayxzodaning ijodida qadimiy tariximizda yurt ozodligi va mustaqilligi uchun kurashgan qahramonlarimiz haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: drama, urush, vatan, mustaqillik, Jaloliddin Manguberdi, Xorazm Shayxzodaning dastlabki ijod namunalari 1929-yildan e‘lon qilina boshlandi. 30-yillarda shoirning «O‘n she‘r», «Undoshlarim», «Uchinchi kitob», «Jumhuriyat» nomli to‘plamlari dunyo yuzini ko‘radi. Ana shu to‘plamlari bilan Shayxzoda o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos shoir sifatida tanildi va tan olindi.

iz tariximiz to‘g‘risidagi hikoyalardan yaxshi bilasizki, o‘lkamizni XIII asrlarda Chingizxon qo‘shinlari bosib olmoqchi bo‘lganida, xalqimizning mard o‘g‘lonlaridan Jaloliddin Manguberdi dushmanga qarshi qattiq kurash olib boradi. O‘z vatani mustaqilligini saqlash uchun mardonavor turib jang qiladi. Mana shu tarixiy shaxs siymosi va shonli o‘tmish sahifalarini badiiy haqqoniylik bilan tasvirlash «Jaloliddin Manguberdi» dramasi muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. Pyesa Hamza nomidagi o‘zbek davlat akademik drama teatri (hozirgi o‘zbek Milliy akademik drama teatri) sahnalashtiriladi. Botir lashkarboshi Jaloliddin siymosini sahnaga buyuk aktyor Shukur Burhonov olib chiqadi. Shayxzoda Ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan "Jaloliddin Manguberdi" (1944) tragediyasida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo'gul istilochilariga qarshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. «Jaloliddin Manguberdi» dramasida Shayxzoda Vatan erki, mustaqilligi uchun fidoyilarcha kurash olib borgan mana shu jasur sarkarda qiyofasini badiiy gavdalantirdi. Jaloliddin Manguberdi Amir Temurga ham ibrat bo‘lgan buyuk siymodir.

Ma‘lumki, sho‘ro davrida, o‘tmishdagi xon, sulton, hukmdorlarimiz nechog‘liq buyuk va vatanparvar bo‘lishidan qat‘i nazar, yoppasiga qoralab kelindi. Chunki sho‘rolarga buyuklarimizdagi xuddi ana shu vatanparvarlik qudrati ma‘qul kelmas, otabobolarimizdagi ana shu buyuk xislat yangi avlodlarga o‘tishini istamas edilar.

Qatag‘on qilingan bunday ulug‘ siymolar nomi mustaqillik davriga kelib tiklandi. O‘zbekiston hukumati xalqning bu jasur farzandi nomini abadiylashtirish

maqsadida «Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida» (1998) maxsus qaror qabul qildi, O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan (2000) «Jaloliddin Manguberdi» ordeni ta'sis etildi.

Vatanparvarlik hissiyoti jo'sh urib yozilgan Maqsud Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» dramasi 1945-yilda Hamza nomidagi O'zbek davlat drama teatri tomonidan muvaffaqiyat bilan sahnalashtirilganiga qaramay, ko'p o'tmay, sahnadan olib tashlandi. Muallifga esa o'tmishni, xonlarni, beklarni, feodalizmni oqlash va yoqlash tang'asi yopishtirildi. Bu «aybnoma» nohaq qamalishiga ta'sir ko'rsatdi.

Dramaning ayrim parchalarigina yozilgan kezlari nashr etildi. Muallif hayotlik chog'ida, biror marta to'lig'icha chop etilgani yo'q. To'lig'icha ilk bor o'zbek tilida dramaturg vafotidan yigirma bir yil o'tgach (1988) bosmadan chiqdi. «Jaloliddin Manguberdi» dramasida Vatan uchun, uning ozodligi uchun bosqinchilarga qarshi kurash olib borgan jasur sarkarda, buyuk hukmdor siymosi o'zining, ayniqsa, tabiiy, jonli tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Tasvirdagi qahramon tabiiyligini ta'minlovchi muhim hayotiy omillar bor, albatta.

Jaloliddinning xalqni dushmanga qarshi va yurt himoyasi uchun birlashtirish yo'lidagi ko'rsatgan jonbozliklarini saroydagi Badriddin singari munofiq kimsalar va ular ta'sirida dastlab otasi Xorazmshoh ham to'g'ri tushunmaydi. Shunda Jaloliddin «Menga koshonadan chodir yaxshiroq» deb chiqadi va yurt himoyasi uchun qo'shin berishlarini talab qiladi. Amir Badriddin valiahdning bu mardona so'zlari ostidagi maqsad vatanparvarlik emas, taxtni egallash deb tushunib, shoh hayot bo'lishiga qaramay: «u taxtga ega bo'lmoqchi», - deb ig'vo boshlaydi.

Jaloliddin – qahramon shaxs. U jasur sarkarda, elni, yurtni g'animga qarshi birlashtirayotgan, tashabbusi bilan lashkarni ulug' g'alabalarga ilhomlantirayotgan va bu yo'lda ibrat ko'rsatayotgan valiahd bo'lishiga qaramay, ayni vaqtda, oddiy inson sifatida gavdalanadi. Masalan, Jaloliddin bilan singlisi Sultonbegim o'rtasidagi oddiy insonlarga xos bo'lgan aka-singillik mehr-oqibatlarini shu qadar samimiy va go'zal tasvirlanadiki, kishining havasi keladi. Vatan va xalq taqdirining eng qaltis pallalarida ularni bosqinchilardan himoya qilish uchun otlangan Jaloliddinning bu yo'ldagi shijoatini, jur'atini, jasoratini ko'rsatar ekan, dramaturg o'z qahramonining valiahd va hukmdor sifatidagi xususiyatlaridan ko'ra oddiy inson sifatidagi iztiroblarini, har qanday insonga begona bo'lmagan ayrim mas'uliyatli holatlardagi ikkilanishlarni badiiy tasvirlashga alohida e'tibor beradi. Bu esa qahramon xarakterining ishonarli, jonli va hayotiy chiqishini ta'minlaydi.

Dushman qo'lga tushib azoblangandan ko'ra, o'limni afzal bilib, hatto dunyodagi eng aziz zot – onasi va farzandlari daryoga cho'ktirilishini ma'qul ko'rgan

Jaloliddin Manguberdi va mard Temur Malikning tarixiy haqiqat ruhi bilan yo'g'rilgan siymolari dramaturg Maqsud Shayxzoda qalami ostida ko'z o'ngimizda tirik insondek gavdalanadilar.

Maqsud Shayxzoda bu obrazlarga muhim ma'no yuklar ekan, yurtimizdagi XIII asr tarixiy hodisalarini gavdalanitirishdan tashqari, Vatan bosqinchilariga oyoq osti bo'lishida, xalq boshiga azob-uqubatlar yog'ilishida, mustaqillikning qo'ldan ketishida mana shunday xiyonatlarning o'rni oz emas, degan achchiq haqiqatlarga ham ishora qilmoqchi bo'ladi. Shunday ekan, ushbu drama Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari asosiy qahramonlari bilangina emas, Badriddin, Yaroqbek, Sulton Muhammad Alovuddin singari personajlari bilan ham bizni ogohlikka chaqiradi, Mustaqilligimizni ko'z qorachig'idek e'zozlashga da'vat etadi, xalqni, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shayxzoda urushdan keyingi yillar tinch hayot va yaratuvchilik zavqini tarannum etgan (kuylagan) she'rlaridan iborat «O'n besh yilning daftari», «Olqishlarim», «Zamon torlari», «Shu'la», «Chorak asr devoni» kabi to'plamlarini nashr ettiradi. 1957-yili qadim poytaxtimiz Toshkent haqida teran falsafiy va nihoyatda ehtirosli tuyg'ularga boy «Toshkentnoma» dostonini yozadi. Tarixiy mavzulardagi izlanishlarini davom ettirib 1960-yilda «Mirzo Ulug'bek» tragediyasini yaratadi. Bu asar o'zbek dramaturgiyasi rivojida juda katta o'rin tutadigan pyesadir. Asarda Buyuk bobokalonimiz, dunyo falakshunos olimlari ichida e'tirof topgan, ulug' Amir Temurdan so'ng temuriylar nasabini olamga tanitgan Mirzo Ulug'bek siymosi asarda muhabbat va ulug'vorlik bilan tasvir etiladi. Uning inson va shoh, shoh va olim, ota sifatidagi siymosi falsafiy (badiiy) teranlikda, badiiy baquvvat she'riy satrlarda ochib beriladi. Bu obrazni ham Shukur Burhonov katta mahorat bilan ijro etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayziyev B Balotat. "Sharq yulduzi" jurnali, 1960.
2. Ikromov O. Shuhratning "Oltin zanglamas" romani Ulug' Vatan urushi davrining badiiy ifodasi sifatida. Samarqand professor o'qituvchilarning II ilmiy konferensiya materiallari, Samarqand 1963;
3. Totayev O. "Oltin zanglamas". "Guliston" jurnali, 1967.
4. Xojimatov J. Hayotning badiiy in'ikosi. "Sharq yulduzi" jurnali, 1967.
5. Xudoyberganov N. "Yashashning ma'nosi". "Sharq yulduzi" jurnali, 1960.

MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODI

Xamdamova Lola Olimjon qizi
Toshkent Davlat Transport Universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning hayotiy kechmishlari va ijodi keng talqin qilingan. Shoir, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, pedagog Maqsud Shayxzodaga bildirgan shoir va yozuvchilarning fikrlari ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: Maqsud Shayxzoda, O'n she'r, Undoshlarim, Uchinchi kitob, Jumhuriyat, "Toshkentnoma" dostoni, "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi,

Maqsud Maqsumbek o'g'li Shayxzoda 1908-yilda Ozarbayjon Respublikasi Ganja viloyati Oqtosh shahrida tavallud topdi. [1]. Boshlang'ich va O'rta ma'lumotni Oqtoshda olgach, Boku Oliy pedagogika institutida sirdan o'qidi. Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar tahririyatlarida, 1935-1938 yillarda esa Fanlar qo'mitasi qoshidagi til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. Shoirning adabiy faoliyati 1929-yildan boshlandi uning "O'n she'r" (1932), "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934), "Jumhuriyat" (1934) to'plamlari nashr etilishni boshladi. [2-3-4-5]. Otashin shoir mustabid tuzumning jabr-zulumidan chetda qolmad. U birinchi bor 1928-yili qamoqqa olindi. 3 yilga O'zbekistonga surgun qilingan edi. Yozuvchilar uyushmasidan o'chirilib, 1952-yil 22-sentabrda qamoqqa olinadi va 25 yilga ozodlikdan mahrum qilinadi. Shoir Stalin vafotidan keyin ozodlikka erishdi, ijodga qaytib, 1958-yili ko'hna va navqiron Toshkent shahriga bag'ishlangan "Toshkentnoma" lirik dostonini yozdi.[6]. 1960-yilda "Mirzo Ulug'bek" tragediyasini yozib, unda buyuk munajjim va ma'rifatparvar davlat arbobi Mirzo Ulug'bek obrazini yaratdi.[7]. Shayxzoda Pushkinning "Mis chavandoz", Lermontovning "Kavkaz asri", Mayakovskiyning "Juda soz", Shekspirning "Hamlet" hamda "Romeo va Julyetta" tragediyalarini o'zbek tiliga o'girdi. Shoir 1967-yil Toshkentda vafot etdi. 2001-yili o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun "Buyuk hizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

Shayxzoda aql ma'nosidagina emas, siymo ma'nosida ham hammamizdan ajralib turardi. Muxtor og'aning beozor savoli unga erish tuyulmadi. Aksincha, hamma yerda, hamma vaqt, hamma muhit va sharoitda qalbini obod qilgan faxr tuyg'usini jo'shtirib yubordi. U suyunib, hatto faxrlanib, ozarbayjonlik ekanini, Ozarbayjondan kelganini aytdi. Shu so'zlarni aytib turganida Maqsudning yuziga xuddi osmondagi quyosh ko'chib tushgandek bo'ldi (Maqsud Shayxzoda haqida xotiralar sahifasidan).

O'zbek adabiyotining buyuk namoyandalari – G'afur G'ulom va Oybek kabi otashnafas san'atkorlar safida ijod qilgan Maqsud Shayxzoda zuvalasi she'riyat shu'lasini bilan yoritgan kuychi edi. Uning asarlarida buyuk inqilobiy ideallar, jo'shqin vatanparvarlik tuyg'ulari, chinakam ijodiy hissiyotlar bilan yashagan yoniq qalbning gulduros aks sadosi mujassam topgan (Mirzo Ibrohimov, Ozarbayjon xalq yozuvchisi).

Xurshid Davron SHAYXZODA XOTIRASIGA

Ko'kka ziyrak quloq tutardi
Tutmoq bo'lib tun ovozini,
Qiz yuziga engashgan kabi
Egilardi qog'ozga birdan.
Kechalari oyni shu'lasini
Yoritarkan she'r qog'ozini,
Tutatardi papirosini
Yonib turgan qalami bilan.

1983-yilda yozilgan ushbu satrlarga qarang. Shayxzodaga shunday tarifi berilgan: tun ovozini eshitish uchun ko'kka boquvchi, qog'ozga qiz yuziga egilganday egiluvchi bag'ri keng inson.

“Qirq yil muqaddam XX asr o'zbek adabiyotining buyuk siymolaridan biri Maqsud Shayxzodaning jabrdiyda yuragi urishdan to'xtadi. O'tgan davr mobaynida uning tengdoshlari, izdoshlari, shogirdlari va muxlislarining ham aksari hayotdan ko'z yumdi. Shu davrda tug'ilib voyaga yetgan avlod esa uning jo'shqin so'zini eshitmay, nurli chehrasini ko'rmay, tanti qalbining saxovatidan bahramand bo'lmay o'smoqda. Binobarin, ularning Shayxzodani nafaqat buyuk shoir, balki buyuk inson sifatida ham idrok etishi, uning porloq iste'dodi oldida ta'zim qilishi qiyin. Shuning uchun ham bu otashnafas shoirning hayoti va ijodi, qanday noyob siymo bo'lgani to'g'risida yozish biz — zamondoshlarning vazifamizdir” deb yozadi - Naim Karimov.

Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyoti rivojiga kata hissa qo'shgan, mustabit tuzumi davrida azob chekkan, shoir, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, pedagogdir. Uning she'rlarida jo'shqinlik, sevgi, vatanga mehr kabi tuyg'ular seziladi. Shayxzodadek ajdodlarimiz borligidan faxrlanamiz. Ajdodlarimiz hayoti, ijodi va meroslarini o'rganishlik, ulardan habardor bo'lishlik hamda ularni hayotga tadbiiq qilishlik – bizni faqat va faqat muvaffaqiyat sari yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saparov Jaloliddin Xolbobo o'g'li. (2023). "MAQSUD SHAYXZODANING TARIXIY MAVZULARDA IZLANISHLARI". *"Conference on Universal Science Research 2023"*, 1(3), 114–116. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/cusr/article/view/352>
2. Tursunboyeva Dilshoda Nazirjonovna. (2023). SHAYXZODA HAYOTIGA NAZAR SOLIB. *Journal of Universal Science Research*, 1(2), 415–422. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/247>

Deviant xulq tushunchasi va uning namoyon bo'lishi.O'smirlarda deviant xatti-harakatlarning sabablari.

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi
O'razmatova Risolat Umidjon qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqola deviant xulqli bolalar va o'spirinlarning rivojlanishi va hayotiy tarzini haqida,deviant xulqli bolalar mavzusini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: Deviant, o'sprinlik, yoshli, xulqi og'ishgan, fiziologik anotomik, deviatsiya, biologic, irsiyat.

Abstract: This article covers the development and lifestyle of children and adolescents with deviant behavior, and the topic of children with deviant behavior.

Key words: Deviant, adolescent, young, deviant, physiological anatomic, deviation, biological, heredity.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития и образа жизни детей и подростков с девиантным поведением, а также тема детей с девиантным поведением.

Ключевые слова: Девиантный, подростковый, молодой, девиантный, физиологический, анатомический, девиация, биологический, наследственность.

Deviant xulq-atvor belgilarining paydo bo'lishi insonning ijtimoiy muhitiga ta'sir qiladi. Sotsiologiyada deviant xatti-harakatlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlari yordamida hamma narsani tartibga solish har doim ham mumkin emas. Maqsad va imkoniyatlar o'rtasidagi nomutanosiblikdan, odamlar natijaga erishish uchun boshqa vositalardan, masalan, noqonuniy usullardan foydalanishadi.Deviant xatti-harakatlar ikki turga bo'linadi, shuning uchun ijobiy va salbiy deviant xatti-harakatlarni ajrating. Ijobiy, giperaktivlik, daho bilan chegaradosh iste'dod, vazminlik - qonun xatiga zid bo'lmagan harakatlar. Deviant xulqning salbiy turlari:

1. Belgilangan yashash joyisiz yashash, ko'chalarda tilanchilik, voyaga etmagan bolalar va o'spirinlar haqida gap ketganda uysiz qolish.

2. Hayvonlar va odamlarga nisbatan shafqatsizlik, bu qonun ustuvorligida, lekin boshqalarning tashvishi va qo'rquviga sabab bo'ladi.

3. Yomon odatlarga moyillik - alkogol, giyohvand moddalar. Bu shuningdek, kompyuter va qimor o'yinlariga, fohishalikka, o'g'rilikka va qonunga muvofiq turli darajadagi javobgarlik uchun javobgarlikka tortishni o'z ichiga oladi.

Deviant xulq-atvorning yana bir varianti - qo'zg'olonchilar, inqilobchilar, terrorchilarga xos bo'lgan, belgilangan poydevorga qarshi chiqadigan ijtimoiy

og'ish. Deviant harakatlarning namoyon bo'lishiga yordam beradigan turtki nima ekanligini tushunish kerak. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlardagi muammolar deviant xatti-harakatlarning sababiga aylanadi. Shunga o'xshash belgilar to'liq bo'lmagan oilalarda tarbiyalangan bolalarga xosdir. Ba'zida bitta ota-onaning g'amxo'rliigi va nazorati etarli emas. Hamma oilalar ham o'z xohishlaridan kam emas. Ota-onalardan birining o'limi, ajralishlar - kattalar uchun bolalarning ruhiy holati haqida o'ylash uchun imkoniyat. Har xil muammolar deviant xatti-harakatlarning sababiga aylanadi, bunga misol ota-onalarga ma'lum:

1. Bolaning turli xil qo'rquvlari va komplekslari, ular kattalarga aytishga xijolat bo'lishadi.
2. Ota-onalar tomonidan nazoratning yo'qligi, har qanday harakatlar uchun o'zlarining jazosizligini tushunish.
3. Agressiya, tirnash xususiyati, dunyoni salbiy qabul qilish.
4. O'z-o'zidan engish qiyin bo'lgan ruhiy kasalliklar.

G'ayritabiiy xatti-harakatlar nima ekanligini tushunish oson emas. Har bir alohida jamiyatda muayyan qoidalar, normalar va buyruqlar mavjud. Masalan, Meksikaning jinoiy hududlari uchun maqbul bo'lgan narsa dunyoning madaniy poytaxtlarida axloqsiz bo'lib tuyuladi. Deviant xatti-harakatlarning ko'p turlari mavjud, ularning barchasi bir nechta guruhlarga bo'linadi: qo'shadi, jinoyatchidir, axloqsiz, o'z joniga qasd qiladi. Deviant xatti-harakatlarning har bir shakli batafsil ko'rib chiqilishi kerak. Haqiqatdan voz kechish, yomon odamlar, SHlar yo'q bo'lgan o'zingizning kashf etgan dunyongizga sho'ng'ish, hamma narsa sodda va tushunarli - bunga deviant qo'shadi. Kontseptsiya "yomon odat" degan ma'noni anglatuvchi inglizcha "qo'shadi" so'zidan kelib chiqqan. Giyohvandlikka qaratilgan deviant xatti-harakatlar turlari har xil bo'lishi mumkin - engil shakldan og'ir shaklgacha. Ushbu og'ish quyidagi salbiy harakatlar bilan ifodalanadi:

alkogol, giyohvand moddalar, tamaki mahsulotlariga qaramlik;
qimor va kompyuter o'yinlariga qiziqish;
fohishalik.

Noto'g'ri xulq: Qonunni buzadigan harakatlar, ataylab qilingan deviant xatti-harakatlar deb ataladi va ular o'qituvchilar, sotsiologlar va sud ekspertlari tomonidan nazorat qilinadi. Uch turi mavjud:

1. Zaif - og'ir jazoga olib kelmaydigan mayda huquqbuzarliklar, masalan, bezorilik, jamoat joylarida suiste'mol qilish, alkogol ichimliklarni ko'p ichish.
2. O'rtacha - Mehnat to'g'risidagi qonunlarning intizomiy buzilishi, masalan, ishdan kechikib qolish, ish vaqtida mast bo'lganda paydo bo'lish.

3. Og'ir - qonunni jiddiy buzadigan va javobgarlikka olib keladigan harakatlar, masalan fohishalik, giyohvandlik vositalarini sotish, o'g'irlik, jinsiy zo'ravonlik.

Axloqsiz xatti-harakatlar: Axloq nima ekanligini aniqlash qiyin. Deviant axloqsiz xatti-harakatlar jamiyat madaniyati va an'analariga bog'liq. Shunday qilib, agar ba'zi mamlakatlarda xoinlik sudlangan xatti-harakatlar deb hisoblansa, masalan, Yaponiyada bunga tushunarli munosabatda bo'lish kerak. Ushbu mamlakatda erkaklar ko'ngil ochish bo'yicha geishas instituti yuqori darajada rivojlangan. Rossiyada shunga o'xshash hodisa fohishalik deb ataladi va qonun bilan jazolanadi. Shuning uchun deviant xulq turlarini axloqiy me'yorlarga tayanib, ma'lum bir mamlakat va millat nuqtai nazaridan ko'rib chiqish kerak.

O'z joniga qasd qilish harakati: Yosh avlod orasida o'z joniga qasd qilish kam uchraydi. O'z sog'lig'iga zarar etkazishga qaratilgan harakatlar o'spirinning o'z joniga qasd qilgan deviant xatti-harakati bilan bog'liq. Uning ba'zi turlari namoyishga, achinish tuyg'usini uyg'otishga, odamga e'tibor berishga qaratilgan. Shunday bo'lsa-da, bunday harakatlar ba'zan kuchli hissiy shok yoki travma natijasida ta'sirlangan holatda qilinadi. Ba'zida o'z joniga qasd qilish harakati tabiatda hisoblab chiqiladi va boshqalarga qaraganda ko'pincha maqsadga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримова Л.И. Социальная психология и реклама: Учебное пособие для вузов. Т.: Издательскополиграфический творческий дом им. Г.Гуляма, 2004. С. 20.
2. Sotsiologiya molodeji. Uchebник. /Pod red. V.T.Lisovskogo. SanktPeterburg, 1996
- 3 Каримова Л.И. Социальная психология и реклама: Учебное пособие для вузов. Т. Издательскополиграфический творческий дом им. Г.Гуляма, 2004. С. 20.
- 4 Sotsiologiya molodeji. Uchebник. /Pod red. V.T.Lisovskogo. SanktPeterburg, 1996

THOUGHTS ABOUT DIABETES

Scientific leader: Kurbanova Nozima Sobirjonovna

Samarkand State Medical University

Students: Nizomitdinova Zinura Isomiddinovna

Adhamjonova O'ktamkhan Akmalkhan qizi

Samarkand State Medical University 410 - group of students

Annotations: Diabetes mellitus is a disease caused by insulin deficiency and metabolic disorders in the body. Diabetes has been known for a long time in the history of Eastern folk medicine. Abu Ali ibn Sina pays special attention to this pain. "Water comes out the way it was drunk," he wrote. If the patient drinks a lot of water, it will cause other diseases and the patient will lose a lot of weight. Stopping the treatment, the doctor says: "Give the patient cold fluids, put them in a cooler, drink sour yogurt, give them fruits, drink mint, that is, wet the patient and cool him." This disease is caused by excess heat in the human body. means that it will appear. According to historical medical sources, diabetes can also be hereditary. In diabetes, there is a sharp increase in blood sugar, it is excreted in the urine (it contains sugar), thirst, weight loss, weakness, body itching and other symptoms are observed.

Key words: diabetes, insulin, type 1

